QO‘QON SHAHRI TARIXIY-ME’MORIY OBYEKT NOMLARINING ONOMASTIK TADQIQI

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o‘g‘li
ORCID:0009-0009-3271-0852
akhmadjonovnurbek@gmail.com
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon shahri tarixiy-me’moriy obyektlari nomlarining onomastik maqomi, nomlanish motivlari, struktur tuzilishi va etimologik qatlamlari tadqiq etilgan. Material to‘rt manbadan - I.Azimovning «Farg‘ona vodiysi arxitektura yodgorliklari» (1982) asari, madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati (2024) hamda D.Tojiboyeva (2021) va N.Sharipovaning (2025) maqolalaridan olindi; 64 ta nom tahlil qilindi. Rasmiy ro‘yxatdagi obyektlarning 39,1 foizi atoqli nomdan mahrum ekani; nomlanishning yetakchi motivi antroponimik ekani (45,2%); duragay yasalish modeli ustunligi (46,9%) hamda manbalar o‘rtasida nomenklatura terminlari, unvon komponentlari va imloviy shakllarni qamrovchi variantlilik mavjudligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: onomastika, urbanonim, oykodomonim, ekklezionim, nekronim, nominatsiya, memorativ nom, deonimizatsiya, nom variantliligi

AN ONOMASTIC STUDY OF THE NAMES OF HISTORICAL-ARCHITECTURAL SITES IN THE CITY OF KOKAND

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o‘g‘li
ORCID: 0009-0009-3271-0852
akhmadjonovnurbek@gmail.com
Fergana State University

Abstract: The article examines the onomastic status, motives of nomination, structural composition and etymological layers of the names of historical and architectural objects in the city of Kokand. The material is drawn from four sources - I.Azimov’s «Architectural Monuments of the Fergana Valley» (1982), the national register of immovable cultural heritage (2024) and the articles by D.Tojiboyeva (2021) and N.Sharipova (2025) - comprising 64 names. The analysis shows that 39.1% of the registered objects have no proper name; that the leading motivation of nomination is anthroponymic (45.2%); that the hybrid derivational model prevails (46.9%); and that naming variation across the sources affects nomenclature terms, title components and orthographic forms.

(cc) BY

Keywords: onomastics, urbanonym, oikodomonym, ecclesionym, necronym, nomination, memorative name, deonymization, name variation

1. Kirish

O‘zbek onomastikasining keyingi o‘n yilliklardagi taraqqiyoti, asosan, toponimika va antroponimika hisobiga yuz berdi; alohida binolar va me’moriy inshootlar nomlari tizimli tadqiq etilmagan holda qoldi. Bu bo‘shliq, avvalo, terminologik tabiatga ega: E.Begmatov va N.Uluqov o‘zbek nomshunosligi terminologiyasi to‘planmagani, tilshunoslik lug‘atlarida esa nomshunoslik terminlari chetlab o‘tilganini qayd etadilar - A.Hojiyevning «Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati» (2002) kitobidagi 2300 dan ortiq terminning atigi 11 tasi nomshunoslikka daxldor[1]. O.T.Begimov ham urbanonimlarni lingvistik aspektda alohida tadqiq etish dolzarbligini ta’kidlab, onomastik terminologiyani tartibga solish zaruratini ko‘rsatadi[2]; shahar ichidagi me’moriy obyektlar nomlari aynan urbanonimiya doirasiga kiradi.

Qo‘qon shahri bu jihatdan alohida qiziqish uyg‘otadi: uning yuksalishi XVIII asrga Qo‘qon xonligi poytaxtiga aylangan davrga to‘g‘ri keladi, eski shahar qismida saqlangan xon saroyi, masjid, madrasa va memorial inshootlarning aksariyati esa XIX - XX asr boshlariga mansubdir[3]. Demak, bu nomlar nisbatan qisqa va aniq tarixiy davr mahsuli bo‘lib, ularni yaxlit tizim sifatida tahlil qilish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi - bu nomlarning onomastik maqomini belgilash, ularni nomlanish motivlari va struktur tuzilishiga ko‘ra tasniflash, nom tarkibidagi til qatlamlarini aniqlash hamda ilmiy, rasmiy va ommabop manbalardagi nomlanishni qiyosiy o‘rganish. Yangiligi shundaki, Qo‘qon me’moriy obyekt nomlari ilk marta yaxlit onomastik tizim sifatida o‘rganiladi va nomning uch xil qayd etilish shakli qiyoslanadi.

2. Adabiyotlar tahlili

O‘zbek nomshunosligining nazariy asoslari antroponimika va toponimika materialida shakllangan: E.Begmatov shaxs nomlari tizimini hamda joy nomlarining ma’naviy asoslarini, Z.Do‘simov va X.Egamov ularning semantik-motivatsion tiplarini, H.Hasanov esa hududiy toponimiyaning tarixiy qatlamlarini yoritgan[4]; bu an’anada alohida bino nomlari mustaqil razryad sifatida ajratilmaydi. Me’moriy obyekt nomlarini tavsiflovchi terminologik apparat esa rus onomastikasida shakllandi. O.T.Begimov ko‘rsatishicha, N.V.Podolskaya lug‘atining birinchi nashrida (1978)

[1] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: НамДУ, 2006. – Б. 5.
[2] Begimov O.T. O‘zbek onomastikasida urbanonimiyaga oid terminologiyaning qo‘llanishi masalasi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – 5(8). – ISSN 2181-1784. – B. 93.
[3] Азимов И. Архитектурные памятники Ферганской долины. – Ташкент: Узбекистан, 1982. – С. 21.
[4] Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013; Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент, 1998; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977; Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965.

(cc) BY

urbanonim tarkibiga «alohida binoning nomi» tavsifiy ibora bilan kiritilgan edi; ikkinchi nashrida (1988) bu ibora oykodomonim atamasi bilan almashtirilgan, avval mustaqil onim turi sifatida qayd etilgan ekklezionim esa shahar ichidagi obyektlarga nisbat berilgan[5] - demak, tayanch terminlarimiz aynan urbanonimiya tarkibidagi mustaqil razryadlar sifatida shakllangan.

O‘zbek tilidagi terminologik bazani E.Begmatov va N.Uluqovning izohli lug‘ati belgilaydi: urbanonim «shahar ichida joylashgan har qanday topografik obyektlar atoqli oti» sifatida izohlanib, tarkibiga agoronim, godonim, xoronim, ekklezionim va oykodomonim kiritiladi. Tadqiqotimiz uchun to‘rt termin hal qiluvchi ahamiyatga ega: oykodomonim - «alohida olingan bino, inshoot va boshqa xil me’morchilik obidasining atoqli oti»; ekklezionim - diniy marosim ado etiladigan joy (masjid, cherkov, monastir) nomi; ergonim - muassasa, tashkilot va uyushgan jamoa nomi; nekronim - mozor, qabriston va shu tipdagi muqaddas qadamjoylar nomi; maqbara nomi va masjid nomi kabi tor terminlar esa tasnifning quyi bosqichida ishchi birlik bo‘lib xizmat qiladi[6]. Ta’rifdagi «topografik» so‘zi tasnif uchun hal qiluvchi mezon: Begimovning izohlashicha, faqat ma’lum nuqtada aniq geografik aloqaga ega bo‘lgan va manzil funksiyasini bajara oladigan obyekt topografik hisoblanadi[7]; mezon korpusimizdagi barcha birliklarga mos keladi, chunki ularning har biri ro‘yxatda mahalla, ko‘cha nomi va uy raqami bilan qayd etilgan.

Ergonimlarni urbanonimiya qatoriga kiritish masalasi bahsli: Begimov ularni topografik obyekt deb hisoblash mumkin emasligini - ular ma’lum joyga bog‘lanmagani va ko‘chishi mumkinligini - ta’kidlaydi[8]; A.V.Superanskaya esa bino va undagi muassasa nomlarini farqlashni taklif qiladi: bino urbanonim, muassasa nomi esa urbanonimlar bilan qisman kesishadigan mustaqil guruh hisoblanadi[9]. Mavjud terminologiyaning yetarli emasligi adabiyotda ochiq qayd etilgan: T.V.Shmeleva oykodomonim va ekklezionim atamalari bilan shahar tuzilmalari nomlarining barcha turlarini - ko‘prik, vokzal, bozor, qabriston, park nomlarini - tavsiflash imkoni yo‘qligini ta’kidlaydi[10]; V.I.Suprun ko‘prik nomlari uchun gefuronim (yunoncha γέφυρα - «ko‘prik») atamasini taklif qilgan. Begimov urbanonim turlari qatorida agoronim, godonim, shahar gefuronimi va xoronimi, ekklezionim, oykodomonim, shahar drimonimi va nekronimni ko‘rsatishni maqsadga muvofiq deb biladi[11]; bu ro‘yxat yodgorlik va memorial majmualar nomlarini qamramaydi, shu bois ularga nisbatan monumentonim (lotincha monumentum) atamasini taklif qilamiz. Shunday qilib, zarur terminologik apparat umumiy onomastikada mavjud, biroq o‘zbek tili

[5] Begimov O.T. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 90.
[6] Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 87, 58, 92–93, 93, 50, 45.
[7] Begimov O.T. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 91.
[8] Begimov O.T. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 91.
[9] Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С. 75.
[10] Begimov O.T. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 92.
[11] Begimov O.T. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 93.

(cc) BY

materialida sinab ko‘rilmagan; nomning ilmiy, rasmiy va ommaviy qayd etilish shakllari esa qiyosiy o‘rganilmagan - tadqiqot ayni shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tabiati jihatidan farqlanuvchi to‘rt manbaga tayanadi. Birinchisi - I.Azimovning «Farg‘ona vodiysi arxitektura yodgorliklari» (1982) asari: muallifning ko‘p yillik dala tadqiqotlarini jamlagan ilk yaxlit yo‘riqnoma[12]. Unda Qo‘qon bo‘yicha 13 ta obyekt raqamlangan[13]; 5-raqam ostida ikkita memorial majmua birlashtirilgani sababli ulardan 14 ta nom ajratiladi. Manba ilmiy - tavsifiy bo‘lib, nomlarning XX asr 80-yillaridagi holatini qayd etadi. Ikkinchi manba - madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati (2024). Unda Qo‘qon bo‘yicha 64 ta obyekt qayd etilgan: 1 tasi arxeologiya, 59 tasi arxitektura, 2 tasi monumental san’at yodgorligi va 2 tasi diqqatga sazovor joy[14]; raqamni M.F.Rasulov ham tasdiqlaydi - viloyatdagi 381 ta meros obyektining 64 tasi Qo‘qon va atrofida joylashgan[15].

Manbalarning tabiati har xil bo‘lgani uchun ular o‘rtasidagi tafovutlar tasodifiy emas va bu tafovutning o‘zi mustaqil tahlil obyekti hisoblanadi. Tadqiqotda tavsifiy, struktur - semantik, etimologik, qiyosiy va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalanildi. Cheklov: 64 ta birlikning 42 tasida nomlanish motivi, 32 tasida til mansubligi aniqlandi; qolganlari atoqli nomga ega emasligi sababli miqdoriy tahlilga kiritilmadi.

4. Tahlil va natijalar

4.1. Onomastik razryadlar bo‘yicha taqsimot.

Yuqoridagi apparat asosida 64 ta obyekt quyidagicha taqsimlandi (1-jadval).

Qo‘qon me’moriy obyektlarining onomastik razryadlar bo‘yicha taqsimoti

Onomastik razryad	Obyekt turlari	Soni	Ulushi
Oykodomonim	saroy, turar-joy, jamoat binosi, hammom, qabulxona	25	39,1%
Ekklezionim	masjid, minora, xonaqoh, cherkov	15	23,4%
Ergonim	madrasa, bank, muzey, institut	14	21,9%
Nekronim	maqbara, daxma, ziyoratgoh	6	9,4%
Monumentonim	haykal, yodgorlik majmuasi	2	3,1%
Gefuronim	ko‘prik	1	1,6%
Arxeologik obyekt nomi	qo‘rg‘on	1	1,6%
Jami		64	100%

[12] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 5.
[13] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 19.
[14] Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектларини миллий рўйҳати (Фарғона вилояти). – Тошкент, 2024. – «4. Қўқон шаҳри» бўлими.
[15] Расулов М.Ф. Роль объектов культурного наследия в изучении истории Узбекистана (на примере Ферганской области) // Партнерские конференции Международного научного журнала Research Focus. – 2025. – Т. 1, № 2. – Б. 101–108. DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/72. Куйидаги бетга қаранг: 101.

(cc) BY

Korpusning uchdan ikki qismiga yaqini (62,5%) oykodomonim va ekklezionim razryadlariga to‘g‘ri keladi. Tasnif shartli: madrasa ham ergonim, ham ekklezionim belgilarini mujassam etadi - Miyon Hazrat madrasasi tarkibida masjid va minora ham bo‘lgan[16]; shu bois bu birliklarni yagona oykodomonim atamasi ostida birlashtirib, ichki tasnifni funksional belgi asosida olib borish ma’qul. Superanskaya qoidasiga ko‘ra birliklar ro‘yxatga bino sifatida kiritilgani uchun birlamchi ravishda urbanonim (oykodomonim), muassasa nomi esa kesishuvchi ergonimik qatlam hisoblanadi. «Adabiyot muzeyi (Sobiq rus banki)» birligida bino doimiy, muassasa ikki marta almashgan. Hammom, xonaqoh va qabulxona nomlari uchun esa maxsus termin yo‘q.

4.2. Atoqli nom va apellyativ tavsif munosabati.

Rasmiy ro‘yxat tahlilida muhim holat aniqlandi: obyektlarning sezilarli qismi umuman atoqli nomga ega emas - ular «Mahalla masjidi», «Turar joy binosi», «Madrasa binosi», «XIX asr me’moriy yodgorligi binosi» kabi apellyativ tavsiflar bilan qayd etilgan[17]. Bunday birliklar atoqli ot emas, turdosh ot birikmasi bo‘lib, onomastik birlik maqomiga ega emas (2-jadval).

Ro‘yxatdagi birliklarning onomastik maqomi

Birlik turi	Soni	Ulushi	Onomastik maqomi
Atoqli nom (onim)	27	42,2%	to‘liq
Apellyativ tavsif + qavsda atoqli nom	12	18,8%	qisman
Sof apellyativ tavsif	25	39,1%	yo‘q
Jami	64	100%	

Demak, ro‘yxatdagi har uch obyektdan bittasidan ko‘prog‘i (39,1%) atoqli nomdan mahrum. 12 ta holatda (18,8%) esa rasmiy nomlanish apellyativ bo‘lsa-da, qavs ichida tarixiy atoqli nom saqlangan: «Shahar hokimligi binosi (Vodyayevlar uyi)», «Mahalla masjidi (Xadiya xoji masjidi)» kabi[18]. Bu rasmiy va an’anaviy nomlanishning bir vaqtda yashashini ko‘rsatadi; onomastik nuqtai nazardan aynan qavs ichidagi qism haqiqiy onomastik birlikdir. Yo‘qolishning ko‘lamini tarixiy statistika aniqroq ko‘rsatadi: «Turkiston viloyati gazeti»ning 1897-yil sonida Qo‘qondagi madrasalar nomma-nom sanalib, 38 tasi qayd etilgan, XX asrning 20-yillarida ularning soni 50 tadan oshgan; Rasulov Mavlonboy masjidini Mulkobod masjidi bilan yonma-yon tilga oladi[19]. Bugungi ro‘yxatda esa atigi 10 ta madrasa bor, biri umuman nomsiz - «Madrasa binosi» tarzida berilgan, Mavlonboy masjidi nomi esa umuman uchramaydi.

4.3. Nomlanish motivlariga ko‘ra leksik-semantik tasnif.

[16] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 27.
[17] Моддий маданий мерос... миллий рўйхати. – «4. Қўқон шаҳри» бўлими.
[18] Моддий маданий мерос... миллий рўйхати. – «4. Қўқон шаҳри» бўлими.
[19] Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 101–102.

(cc) BY

Lug‘atda memorativ nom «shaxsning xotirasini abadiylashtirish yoki biror joy, voqea, tashkilotlarni ulug‘lash maqsadida beriluvchi nom» deb izohlanadi[20] va quyida ana shu ma’noda qo‘llanadi. Motivi aniqlanishi mumkin bo‘lgan 42 ta birlik quyidagi guruhlarga ajraldi (3-jadval).

Nomlanish motivlarining taqsimoti

Nomlanish motivi	Namunalar	Soni	Ulushi
Antroponimik	Xudoyorxon o‘rdasi, Norbo‘tabek madrasasi, Tosh xo‘ja eshon maqbarasi	19	45,2%
Funksional	Jome’ masjidi, Adabiyot muzeyi	5	11,9%
Kasb-mansab	Dasturxonchi madrasasi, Zimbardor madrasasi	2	4,8%
Qurilish materiali	G‘ishtli masjidi, G‘isht ko‘prik	2	4,8%
Metaforik	Xurjun madrasasi, Chalpak madrasasi	2	4,8%
Ijtimoiy tabaqa	Boy uyi, Sarmoyador uyi	2	4,8%
Etnik-konfessional	Rus cherkovi, Sobiq rus banki	2	4,8%
Boshqa motivlar	qarindoshlik, ijtimoiy maqom, toponimik, relikviya	8	19,1%
Jami		42	100%

Antroponimik nomlar eng yirik guruhni tashkil etadi: obyekt bunyodkori, egasi yoki dafn etilgan shaxsning ismi bilan ataladi. Miyon Hazrat (Miyon Axat) Peshovardan ko‘chib kelgan va o‘z mablag‘i hisobidan madrasa qurdirgan shaxs bo‘lib, bino uning nomi bilan atalgan[21]. Rasmiy ro‘yxat bu guruhni Azimovda qayd etilmagan Abdulhakim Halifa, Tosh xo‘ja eshon maqbarasi, Sayid Abdulaziz al-Bag‘dodiy daxmasi kabi nomlar hisobiga kengaytiradi.

Qarindoshlikka asoslangan Modarixon maqbarasi 1825-yilda Umarxonning volidasi uchun qurilgan[22]; nom forscha «modar» (ona) va turkiy «xon» unvonidan hosil bo‘lib, majmuada xon sulolasiga mansub ayollar dafn etilgan[23] - demak, nomlanish asosida individual antroponim emas, shaxsning sulola ichidagi o‘rni turadi. Kasb-mansabga asoslangan Dasturxonchi va Zimbardor madrasalari nomi saroy mansabi va kasb-hunardan olingan; model vodiyning boshqa shaharlarida ham amal qilgan - Marg‘ilondagi Qozi Kalon va Said Ahmad Eshon madrasalari nomi qurilishga shaxsiy mablag‘ sarflagan amaldorlar nomidan kelib chiqqan[24], ya’ni bunyodkorning moliyaviy hissasi nomlanishning bevosita asosidir.

[20] Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 46.
[21] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 27.
[22] Tojiboyeva D. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 973.
[23] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 31.
[24] Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 106.

(cc) BY

Qurilish materiali motivi: G‘ishtli masjidi XX asr boshida mahalliy ustalar tomonidan pishiq g‘ishtdan qurilgan[25]; shu motiv asosida shahardagi ko‘prik ham G‘isht ko‘prik deb atalgan - bir xil motivning turli funksiyadagi obyektlarga ko‘chishi uning hududiy barqarorligidan dalolat beradi. Metaforik nomlarda - Xurjun va Chalpak madrasalari - bino nomi maishiy buyum (xurjun - egar xaltasi) va non mahsuloti (chalpak) nomidan ko‘chma ma’noda olingan [26] ; bunday nomlanish xalq nominatsiyasiga xos bo‘lib, binoning tashqi ko‘rinishi yoki rejasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Toponimik nom - Mulkobod masjidi joylashgan mahalla nomini olgan[27] - transonimizatsiya, ya’ni toponimning ekklezionimga o‘tishi hodisasining namunasi (lug‘atda unga yaqin jarayon urbanonimizatsiya deb izohlanadi [28]). Relikviyaga asoslangan Mo‘yi muborak ziyoratgohi nomida esa motiv sifatida moddiy obyekt emas, diniy qadriyat ishtirok etadi; ayni shu nom Marg‘ilonda - Xo‘ja Mag‘iz majmuasidagi Mo‘yi Muborak xonaqohi nomida - ham uchraydi[29], ya’ni onomastik omonimiya yuzaga kelgan.

4.4. Struktur-grammatik modellar va til qatlamlari.

Me’moriy obyekt nomlari atributiv (aniqlovchi) qism va nomenklatura terminidan (masjid, madrasa, maqbara, o‘rda, uy, ko‘prik) iborat; nomenklatura termini obyekt turini bildirgani uchun struktur tahlil atributiv qism ustida olib borildi. Atoqli nomga ega 27 ta birlikning atributiv qismi quyidagi modellarga ajraldi: sodda nomlar - Jome’, Xurjun, Chalpak; qo‘shma nomlar - Xudoyorxon, Modarixon, Mulkobod, Norbo‘tabek, Dasturxonchi; birikmali nomlar - Kamol qozi, Miyon Hazrat, Tosh xo‘ja eshon, Sayid Abdulaziz al-Bag‘dodiy; affiksli nom - G‘ishtli; izofali qurilmalar - Dahmai Shahon, Mo‘yi muborak. Qo‘shma va birikmali modellarning ustunligi o‘zbek onomastikasining umumiy qonuniyatiga mos keladi: atoqli ot yangi o‘zak yasash bilan emas, tilda mavjud leksik birliklarni birikma holida qo‘llash orqali hosil qilinadi.

Til mansubligi aniqlanadigan 32 ta nomning etimologik tarkibi: sof arabiy - 7 ta; sof forsiy - 3 ta; sof turkiy - 3 ta; ruscha - 4 ta; duragay (aralash) - 15 ta, ya’ni 46,9%. Duragay modellar: forsiy + turkiy - 6 ta (Xudoyorxon, Modarixon, G‘ishtli, G‘isht ko‘prik); arabiy + forsiy - 4 ta (Mulkobod, Olimjon xoji, Xadiya xoji); forsiy + arabiy - 3 ta (Miyon Hazrat, Mo‘yi muborak, Shoirlar maydoni); arabiy + turkiy va turkiy + forsiy - 1 tadan. Nomenklatura terminlari (masjid, madrasa, maqbara, daxma, xonaqoh, ziyoratgoh) deyarli to‘liq arabiy-forsiy qatlamga mansub, atributiv qismda esa turkiy element ko‘proq uchraydi - bu nomlanishning ikki darajali tabiatini ko‘rsatadi: obyekt turi kitobiy terminologiya, individual belgisi mahalliy til resursi bilan ifodalanadi.

[25] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 32.
[26] Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 46.
[27] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 33.
[28] Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 87.
[29] Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 105.

(cc) BY

Uchta holat alohida e’tiborga loyiq. Izofali qurilmalar Dahmai Shahon va Mo‘yi muborakda forscha izofa qo‘shimchasi (-i), birinchisida esa forscha ko‘plik shakli (shoh > shohon) ham qo‘llangan; ko‘plik real asosga ega, chunki dahmada xonlik sulolasiga mansub to‘rt kishining qabri joylashgan[30]. Turkiy muhitda forsiy grammatik modelning saqlanishi xonlik davri rasmiy nomlanish an’anasining kitobiy xususiyatidan dalolat beradi. G‘ishtli nomi forscha «g‘isht» o‘zagiga turkiy yasovchi affiksning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan yagona affiksli yasalish hamda morfologik duragay model bo‘lib, mahalla ahli bergan nomga tegishli - ya’ni xalq nominatsiyasi rasmiy nominatsiyadan struktur jihatdan farq qiladi. Sayid Abdulaziz al-Bag‘dodiy nomida esa arab modeliga xos nisba saqlangan: shaxsning hududiy mansubligi kodlangan yagona holat. Ruscha qatlam alohida o‘rin tutadi: Vodyayevlar, Potelyaxov, Simxayev va Kraftlar uylari nomlari XIX asr oxiri - XX asr boshida shaharda faoliyat yuritgan savdogar va sanoatchilarga tegishli bo‘lib, barchasi rasmiy ro‘yxatda qavs ichida, ya’ni ikkilamchi nom sifatida qayd etilgan[31] - demak, bu qatlam rasmiy nomlanishdan siqib chiqarilgan, biroq tarixiy xotirada saqlangan.

Korpusning yana bir izchil xususiyati - nomlar tarkibida unvon va mansab bildiruvchi komponentlarning muntazam qatnashishi: jami o‘n ikki xil komponent qayd etildi (xon, bek, biy, qozi, xo‘ja/xoji, hazrat, miyon, eshon, halifa, sayid, boy, sohibzoda), oxirgisi faqat ommabop nashrda uchraydi[32]. Taqsimlanishida aniq qonuniyat bor: dunyoviy hokimiyat komponentlari (xon, bek, biy) saroy va ta’lim muassasalari, diniy martaba bildiruvchilari (eshon, halifa, sayid, xo‘ja) memorial-kult obyektlari, iqtisodiy mavqeni bildiruvchi boy komponenti esa faqat turar-joy binolari nomida uchraydi - demak, nomlanish tizimi jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini til vositasida aks ettiradi.

4.5. Nomlanish variantliligi: manbalar qiyosi.

Nomlarning manbalar bo‘yicha qiyosiy tahlili tadqiqotning eng qimmatli natijasini beradi. Azimov asarida qayd etilgan 14 ta nomdan 12 tasi rasmiy ro‘yxatda ham uchraydi, biroq aksariyati o‘zgargan shaklda keltirilgan; ommabop nashrlar uchinchi va to‘rtinchi variantni qo‘shadi (4-jadval).

Bir obyekt nomining to‘rt manbadagi shakllari

Obyekt	I.Azimov (1982)	Milliy ro‘yxat (2024)	D.Tojiboyeva (2021)	N.Sharipova (2025)
Xon saroyi	Urda - Xudoyorxon saroyi	Xudoyorxon o‘rdasi	Xudoyorxon o‘rdasi (saroyi)	Xudoyorxon saroyi; «Qo‘qon durdonasi»

[30] Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 103.
[31] Моддий маданий мерос... миллий рўйхати. – «4. Қўқон шаҳри» бўлими.
[32] Tojiboyeva D. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 973.

(cc) BY

Jome’ masjidi	Jome’ masjidi	Jome’ masjidi	Jome masjidi	Qo‘qon Jomiy masjidi
Xonlar maqbarasi	Dahmai shohon hazirasi	Dahmai Shahon maqbarasi	Daxmai Shoxon ansambli	-
Xon onasi maqbarasi	Modarixon hazirasi	Modarixon maqbarasi	Modarixon maqbarasi	-
Madrasa I	Kamol qozi madrasasi	Kamol qozi madrasasi	Komol Qozi madrasasi	-
Madrasa II	Miyon Hazrat (Miyon Axat)	Miyon Hazrat madrasasi	Sohibzoda Miyon Hazrat madrasasi	-
Madrasa III	Norbo‘tabiy madrasasi	Norbo‘tabek madrasasi	Norbo‘tabiy madrasasi	Norbo‘tabiy madrasasi
Madrasa IV	-	-	Madrasai Mir / Amir madrasasi	-

Tafovutlar to‘rt guruhga ajraladi. Birinchisi - nomenklatura termini almashishi: Azimov hazira terminini qo‘llab, uni o‘zagini e’zozlanadigan qabr tashkil etadigan murakkab memorial majmua sifatida izohlaydi[33]; rasmiy ro‘yxatda uning o‘rniga kengroq ma’noli maqbara, ommabop nashrda esa ansambl termini qo‘llanadi[34]. Natijada bir obyekt uch manbada uch xil termin bilan atalgan va uning tipologik belgisi nomdan yo‘qolgan; xuddi shu holat uy > qabulxona almashinuvida ham kuzatiladi.

Ikkinchi guruh - nom tarkibidagi komponentning o‘zgarishi: Norbo‘tabiy > Norbo‘tabek o‘zgarishida biy (urug‘ boshlig‘i) o‘rniga bek qo‘llangan; bu unvonlar tarixan turli ijtimoiy mavqeni bildirgani uchun almashinuv nomning ma’noviy aniqligiga ta’sir qiladi. Azimovdagi dastlabki shakl ikkala ommabop nashrda ham saqlangan[35] -to‘rt manbadan uchtasi «biy» shaklini qo‘llaydi va faqat rasmiy ro‘yxatda «bek» uchraydi, ya’ni hujjatdagi o‘zgarish jonli qo‘llanishga singib ulgurmagan. G‘ishtlik > G‘ishtli o‘zgarishida esa -lik affiksi -li affiksiga almashgan.

Uchinchi guruh - nom tarkibining kengayishi va qisqarishi: ommabop nashrda Miyon Hazrat madrasasi Sohibzoda Miyon Hazrat madrasasi, Sharipovada esa Jome’ masjidi Qo‘qon Jomiy masjidi shaklida berilgan[36] - oxirgisi nomning mahalliy doiradan chiqishi bilan izohlanadi. Teskari jarayon ham kuzatiladi: Azimovdagi Abdurahmon qozi uyi ro‘yxatda faqat Qozi uyi tarzida berilgan - individuallashtiruvchi antroponim tushib qolgan; Azimov qayd etgan yana ikkita turar-joy obyekti ro‘yxatga umuman kiritilmagan.

[33] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 28.
[34] Tojiboyeva D. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 973.
[35] Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 103.
[36] Sharipova N.A., Erkinjonova M. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 91.

(cc) BY

To‘rtinchi guruh - imloviy variantlilik: Daxmai Shoxon / Dahmai Shahon / Dahmai shohon, Komol Qozi / Kamol qozi, Jome’ / Jome / Jomiy kabi qatorlarda farq tovush tarkibida emas, yozuv me’yorida; M.F.Rasulovda rasmiy ro‘yxatdagi Xo‘jabek, Zimbardor va Xurjun madrasalari Hojibek, Zinbardor va Hurjum shakllarida berilgan[37] - oxirgi juftlikda farq imlodan tashqari tovush tarkibida ham namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tahlil, bundan tashqari, uch yangi hodisani ochib beradi. Birinchidan, perifrastik (epitet) nom: Sharipova maqolasida xon saroyi «Qo‘qon durdonasi» nomi bilan mashhurligi qayd etilgan[38] - obyektni bevosita atamay, uning qadr-qimmatini ko‘chma ma’noda ifodalovchi bu nom korpusdagi yagona holat bo‘lib, lug‘atda u ekspressiv nom termini bilan izohlanadi[39]. Ikkinchidan, ommabop nashr korpusga yangi nom qo‘shadi- Madrasai Mir, u ayni manbada Amir madrasasi shaklida ham qayd etilgan: bu ikki shakl bir xil ma’noni forscha izofa (madrasa-i Mir) va turkiy qaratqich-qaralmish qurilmasi (Amir madrasasi) bilan ifodalaydi, ya’ni forsiy-turkiy ikkitillilikni bevosita ko‘rsatadi. Uchinchidan, epigrafik matnning turlicha o‘qilishi: saroy peshtoqidagi yozuvni Azimov «Arkchi oliy Said Muhammad Xudoyorxon», ommabop nashr «Buyuk Sayid Muhammad Xudoyorxon», Rasulov esa «Arki oliy Sayyid Muhammad Xudoyorxon» tarzida keltiradi[40]; oxirgi variantda «arkchi» o‘rniga «arki» shakli qo‘llangan bo‘lib, forscha izofali qurilma («arki oliy» - oliy qarorgoh) sifatida grammatik jihatdan izchilroq o‘qilishni beradi - demak, tafovut imloviy emas, matnni tushunish darajasiga taalluqli.

5. Muhokama

Natijalar nomlanishning uch xil rejimi mavjudligini ko‘rsatadi: Azimov asari nomning jonli, mahalliy an’anaga tayangan holatini qayd etadi; milliy ro‘yxat institutsional-rasmiy nominatsiya mahsulidir; ommabop nashrlar me’yorlashtirilmagan qo‘llanishni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan 39,1 foizlik apellyativ ulush obyektning jismoniy yo‘qolishi emas, hujjatlashtirish rejimining natijasidir. Bu jarayon - deonimizatsiya, ya’ni onomastik birlikning apellyativ holatga qaytishi; lug‘atda unga yaqin hodisa o‘lik nom termini bilan ifodalanadi. Materialimizda nom iste’moldan chiqmagan, rasmiy hujjatda umuman qayd etilmagan - bu esa uning tiklanish imkoniyatini yo‘qotadi; qisman shakli ham kuzatiladi: Abdurahmon qozi uyi > Qozi uyi o‘zgarishida nom individuallashtiruvchi qismidan mahrum bo‘lgan.

Nom barqarorligi alohida izohni talab qiladi. Korpusdagi birorta obyekt nomining sovet davrida siyosiy sabablarga ko‘ra almashtirilgani manbalarda qayd etilmagan;

[37] Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 102.
[38] Sharipova N.A., Erkinjonova M. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 91.
[39] Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 93.
[40] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 21; Tojiboyeva D. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 973; Расулов М.Ф. Кўрсатилган мақола. – Б. 103.

(cc) BY

lug‘atda bunday hodisa topogenotsid deb izohlanadi[41], Qo‘qon me’moriy obyektlari nomlari esa undan nisbatan chetda qolgan va bu ularni ko‘cha hamda shahar nomlaridan jiddiy farqlaydi. Ayni paytda bir qator obyektlarning vazifasi tubdan o‘zgargan: Xudoyorxon o‘rdasida o‘lkashunoslik muzeyi, Kamol qozi madrasasida mehmonxona, G‘ishtli masjidida kutubxona, sobiq rus banki binosida adabiyot muzeyi, Vodyayevlar uyida shahar hokimligi joylashgan[42]. Vazifa o‘zgarishi tarixiy nomga ta’sir qilmagan hollarda nom barqaror qolgan, rasmiy nomlanish yangi vazifaga ko‘ra shakllanganda esa tarixiy nom qavs ichiga siqib chiqarilgan - demak, nom barqarorligi obyektning jismoniy saqlanishiga emas, hujjatda qanday qayd etilishiga bog‘liq.

Nazariy jihatdan natijalar adabiyotdagi qoidalarni empirik materialda tasdiqlaydi: hammom, xonaqoh va qabulxona nomlari uchun maxsus termin topilmagani Shmeleva va Begimov qayd etgan terminologik bo‘shliqni isbotlaydi; Begimovning urbanonim turlarini kengaytirish taklifi materialimizda qo‘llanish imkonini topadi, zero korpusda gefuronim va monumentonim birliklari bor; «Adabiyot muzeyi (Sobiq rus banki)» misoli esa Superanskaya qoidasini tasdiqlaydi. Amaliy jihatdan natijalar madaniy meros hujjatlarini tayyorlashga taalluqli to‘rt talabni ilgari suradi: tarixiy nomlarni ilmiy adabiyot asosida tiklab, rasmiy ro‘yxatga kiritish; yagona imloviy me’yorga tayanish; nomenklatura terminlarini (hazira, maqbara, daxma, ansambl) tipologik belgiga muvofiq qo‘llash; epigrafik matnlarga bevosita murojaat qilish. Cheklov: miqdoriy tahlil 42 ta birlik bilan chegaralandi, arxiv manbalari jalb qilinmadi.

6. Xulosa

Qo‘qon tarixiy-me’moriy obyekt nomlari urbanonimiya doirasiga mansub yaxlit tizim bo‘lib, uning umumiy atamasi sifatida oykodomonim termini qabul qilinishi lozim; funksional belgi asosida bu tizim ekklezionim, ergonim va nekronim xususiyatlarini birlashtiradi. Biroq uning bugungi holati muammoli: rasmiy ro‘yxatdagi 64 ta obyektning atigi 42,2 foizi to‘liq atoqli nomga ega, 39,1 foizi esa apellyativ tavsif bilan qayd etilgan. Bu ommaviy deonimizatsiya holati bo‘lib, tarixiy nomlarni tiklash va hujjatlashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Saqlangan nomlarning ichki tuzilishi izchil qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Nomlanishning yetakchi motivi memorativ xususiyatga ega - motivi aniqlanadigan nomlarning 45,2 foizi antroponimik asosga qurilgan. Nomlar tarkibidagi o‘n ikki xil unvon va mansab komponenti izchil qatlam hosil qilib, obyekt turiga qarab tabaqalashadi: dunyoviy unvonlar saroy va madrasa, diniy martabalar memorial obyektlar, iqtisodiy mavqe esa turar-joy binolari nomida uchraydi. Yasalish jihatidan duragay model ustunlik qiladi (46,9%) - bu xonlik davridagi uch tilli leksik manbaning teng ishtirokidan dalolat beradi; nomlanishning

[41] Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 76.

[42] Азимов И. Кўрсатилган асар. – С. 24, 27, 33; Моддий маданий мерос... миллий рўйхати. – «4. Қўқон шаҳри» бўлими.

(cc) BY

o‘zi ikki darajali: obyekt turi kitobiy arabiy-forsiy terminologiya, individual belgi esa mahalliy til resursi bilan ifodalanadi.

Manbalar qiyosi nomlanishda sezilarli variantlilikni ochib berdi: nomenklatura terminlari almashgan (hazira > maqbara, uy > qabulxona), unvon komponentlari o‘zgargan (biy > bek), ayrim nomlarda individuallashtiruvchi antroponim tushib qolgan, bir nomning uch xil imloviy shakli qayd etilgan (Jome’ / Jome / Jomiy). Bu tafovutlar madaniy meros hujjatlarini tayyorlashda nomlarni onomastik jihatdan me’yorlashtirish zarurligini, tadqiqot natijalari esa me’moriy obyekt nomlarini o‘zbek onomastikasining mustaqil tadqiq obyekti sifatida ajratish lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектларини миллий рўйҳати (Фарғона вилояти). - Тошкент, 2024.

2. Азимов И. Архитектурные памятники Ферганской долины. - Ташкент: Узбекистан, 1982. - 72 с.

3. Tojiboyeva D. Farg‘ona viloyating muqaddas qadamjolari // Scientific Progress. - 2021. - Vol. 2, Issue 2. - B. 970-974.

4. Sharipova N.A., Erkinjonova M. Farg‘ona viloyatining tarixiy obidalari // Innovatsion talabalar axborotnomasi. - 2025. - 2-jild, 3-to‘plam. - B. 88-91.

5. Расулов М.Ф. Роль объектов культурного наследия в изучении истории Узбекистана (на примере Ферганской области) // Партнерские конференции Международного научного журнала Research Focus. - 2025. - Т. 1, № 2. - Б. 101-108.

6. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. - Наманган: НамДУ, 2006. - 104 б.

7. Begimov O.T. O‘zbek onomastikasida urbanonimiyaga oid terminologiyaning qo‘llanishi masalasi // Oriental Renaissance. - 2025. - 5(8). - B. 87-94.

8. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. - Тошкент: Фан, 2013.

9. Бегматов Э. Жой номлари - маънавият кўзгуси. - Тошкент, 1998.

10. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

11. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. - Тошкент: Фан, 1965.

12. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. - Москва: Наука, 1978. - 199 с.

13. Суперанская А.В. Что такое топонимика? - Москва: Наука, 1985. - 177 с.

(cc) BY